

Oila shaxs tarbiyasi va kamolotining subyekti sifatida.

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasi professori **Azimova Nasiba
Ergashovna,**
Xorijiy tillar fakulteti 2 kurs talabasi **Nasullayeva Zulayho**

Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasini tashkil etadi. Jamiyat kattakichik oilalardan iborat. Bu oilalar qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Darhaqiqat, otaona va farzandlar orasidagi axloqiy muhitning buzilishlari salbiy sifatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ayni shu ma'noda, oilada bolalarning yoshligidan boshlab yaxshi sifatlarini shakllantirib borishga jiddiy e'tibor berish lozim, hayotiy masalalarni xal qilishda otaona ning bilimi, ma'naviyati, o'zini tutishi, yurishturishi katta ahamiyatga egadir. Oilada yuksak g'oyaviy tarbiyaviy bilimlarni oshirish orqali bolalarning Vatan tuyg'usi bilan yashash fazilatini, milliy mas'uliyatini shakllantirish mumkin. Ayni shu ma'noda oilaviy mas'uliyat odamning har bir amali, faoliyati mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda, uning o'zi va oilasi uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Mas'uliyatni his qilgan odam o'z ishini doimo puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi. Bunga erishishning eng qulay yo'li – avvalo ota onalarning g'oyaviy bilimlarini oshirish, ularda sog'lom tafakkur va yangi ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu esa, otaonalardan farzandlarning elyurt oldidagi ma'naviy burchini to'g'ri anglashi, oilaviy munosabatlar doirasida milliy urfodat va an'alarimizni turmushga singdirishi orqali bolalar ongida milliy g'oyaga mehmuhabbat uyg'otish, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashini taqozo etadi.

Odatda inson hayot evolyusiyasining tirik tabiat dunyosini inson madaniyati va tarixi dunyosidan ajratib turadigan chegarasi deb tushuniladi. Bizning birortamiz uchun inson hayot tarzida tabiat zarur sharoit bo'lganini uqtirish shart bo'lmasa kerak. Inson ham xuddi boshqa barcha jonivorlar singari o'ziga qulay bo'lgan atrof tabiat muhitida unga kerakli havo, oziqovqat, suv, issiqlik, xom ashyo, energiya va axborot bo'lgan sharoitlardagina yashashi mumkin. Biroq, boshqa barcha tirik mavjudotlardan farqli ravishda inson o'zi uchun sun'iy dunyosini – madaniyat dunyosini yaratish imkoniga egadir. Aynan mada niyat dunyosigina odam bilan tabiat munosabatida vosita bo'lib xizmat qiladi. Uzoq vaqtlar oralig'ida odamlar tabiiy yashash muhitida bo'lganlari holda sun'iy muhitni yaratib keldilar, bu muhit ularning turmush tarzlarini sezilarli o'zgartirib yubordi. Hozir insonning inson bo'lish uchun bosib o'tgan

uzundanuzoq madaniyatarixiy yo'lini tasavvur qilish mushkul ishdir. Shunchaki odamlar buni o'ylab ham o'tirmaydilar. Tug'ilgan har bir inson dastlab o'z oila a'zolari munosabatlari ichida bo'ladi, o'z tilini, muomala ko'nikmalari, qaror topgan an'analar ni o'rgangachgina, o'z jamiyati bilan madaniy aloqalarga kirishadi. O'zining butun hayoti davomida har bir inson moslashadi, o'qiydi, o'rganadi, mehnat qiladi, atrofida gilarga o'z ta'sirini o'tkazadi va o'z madaniyati dunyosini yaratadi. Madaniyat va jamiyatning turlituman dunyolari bilan duch kelib, ularning ta'sirini sezadi va o'zgaradi. Biroq insonlardan birortasi o'z hayotining mazmu ni to'g'risida o'ylab ko'rganda ham o'zini avval o'tgan va kelgusi avlodlar bilan bog'lovchi bir bo'g'in sifatida ko'rishi qiyin. Alohida inson umrining qisqa muddat liligi birbirining o'rnini oluvchi o'zaro bog'langan av lodlarning madaniyatarixiy birligi bo'lgan insoniyat hayoti bilan taqqoslashni qiyinlashtiradi. Har qanday insonning olamda alohida yashashi sodda bo'lib ko'rinsa da, aslida uning tana va psixik tuzilishi, hayot tarzining evolyusiyasidan tortib to uning xulqodobi nihoyatda uzoq muddatli va murakkabligini kuzatish mumkin. Ayni shu ma'noda, hozirgi vaqtda insonning hayotiy evolyusiya bilan bir qatorda uning axloqiy madaniyatini hisobga olmaydigan inson haqidagi ta'limotni ko'rsatish qiyin. Axloqiy madaniyat strukturasi xususida gapirishdan oldin etika fanining axloq, axloqiy madaniyat katego riyalariga ta'rif bersak. Axloq – ijtimoiy ongning bir formasi bo'lib, axloqiy me'yorlar, qonunqoidalar yig'indisi. Axloqiy madaniyat – insonning axloq qo nunlarini, qoidalarini, me'yorlarini, fazilatlari ni bilishi, egallashi va ularga boshqa insonlar bilan bo'lgan munosabatlarda rioya etish darajasi. Axloqiy madaniyatni amaliy axloq deyish mumkin.

Har qanday odam ham umrining bir marta o'tishini va o'zining boshqa imkoniyati yo'qligini inkor qila olmaydi. Bolalikda u odatda o'ynaydi, o'spirinlik va yoshlikda o'qiydi, yetuk yoshlarda ishlaydi va keksaygan da qanday imkon topsa, shunday dam oladi. O'zining bu tun umri davomida u turlituman hayotiy vaziyatlarda bo'ladi, o'zini u uchragan vaziyatlarga muvofiq tutadi, duch kelgan qiyinchiliklarni yengishga intiladi, bir necha marta o'zining hayotiy qadriyatlarini baholaydi va qayta bog'laydi, boshqa odamlar bilan muloqotda bo'ladi. Uning hayoti voqealarga to'libtoshgan, o'zining va boshqalarning qilgan ishlariga to'g'ri keladi, turli masalalar borasida ular bilan munosabatga kirisha di, birlari bilan do'stlashadi, birovini sevadi, oila quradi, o'z bolalarini tarbiyalaydi, xizmat zinalari dan ko'tariladi, o'z ishlarida yutuqlarga erishib, yuqori mansablarga ko'tariladi. Inson o'zining hayotiy dunyosi bilan qorishib ketadi, bu dunyo uning ichki dunyosiga ay lanadi, bu yerda u o'zini xo'jayin deb biladi va odatda o'zining istiqboldagi hayoti to'g'risida o'ylagani o'ylagan. Insonga rejalar tuzib, o'zining istiqboldagi hayotini mulohaza qilish xosdir. O'zining kelajagiga befarq

qaraydigan odamni topish qiyin. Odatda inson kela jak haqidagi tasavvurlardan uning hayotiy dunyosining holati va istiqboldagi rivoji bevosita yoki bilvosita bog'liq ekanini tushunib yetadi. Bu jarayon umuminsoniy tamoyillar bilan bevosita bog'liq. Ayni shu ma'no da, umuminsoniy axloqiy madaniyat ham har bir inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy axloqiy madaniyat – bu insonning mil lat, irqi, diniy e'tiqodi, qaysi hunar egasi ekanligi, ijtimoiy kelib chiqishi, jamiyatdagi o'rni, yer yuzining qaysi xududida yashashidan qat'i nazar, axloqiy qoida, me'yorlarga rioya etish, axloqiy fazilatlarga ega bo'lish darajasidir.

Umuminsoniy axloqiy madaniyat tamoyillari quyi dagilar: insonparvarlik, vatanparvarlik, millatpar varlik, mehnatsevarlik, jamoatchilik, erklarvarlik, tenglik, hushyorlik, saxovatlik, izlanuvchanlik, tashab buskorlik, qonun ustuvorligi, inson haquhuqlari, tur li millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash, bag'rikenglik (tolerantlik), ma'rifatparvar lik, o'zga xalqlarning ilg'or tajriba va madaniyati ni o'rganish. Insonparvarlik – insonning boshqalarga hurmat, g'amxo'rlik, yordam, mehmuruvvat ko'rsatishidir.

Umuminsoniy axloqiy madaniyatning barcha tamoyillari insonparvarlikning muayyan ko'rinishlaridir. Bizning fikrimizcha, oila tarbiyasida insonparvar likni shakllantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish kerak: oilada barcha uy yumushlarini birgalikda bajarish, o'zaro birbiriga yordam, katta avlodning yosh avlodga o'z bilim, tajribasini o'rgatishi, o'zaro moddiy va ma'naviy qo'llabquvvatlash, qariyalarga mehmuruvvat bilan g'amxo'rlik qilish, oila a'zolarini himoya qilish, qo'niqo'shni, mahalladoshlar bilan iliq muomalada bo'lish, saxiy bo'lish, bemorlar, muhtojlar holidan xabar olish, ularga moddiy, ma'naviy yordam ko'rsatish.

Vatanparvarlik – insonning o'zi tug'ilibo'sgan ona Vatani, oilasi, otaonasi, qarindoshurug'lari, tabiat, millati, uning urfodatlari, tili, madaniyatiga mehm muhabbati, g'amxo'rliqi, ularni e'zozlashi, avaylabas rashi, ravnaqi uchun fidoyi bo'lishi, himoya qilishi va sodiqligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азимова Н. Э., Насимова З. И. Маънавий-маърифий ишлар жараёнида бўлажак касб таълими ўқитувчисини тарбиялаш методикаси //psixologiya uchrediteli: бухарский государственный университет. – №. 3. – с. 129-134.
2. Azimova N. E. Problems of development of new pedagogical technologies of training of teachers of professional education and their introduction into the

- educational and educational process //academia globe: inderscience research. – 2022. – т. 3. – №. 1. – с. 1-3.
3. Azimova N. E. Formation of national and ideological education of students is an integral part of the learning process. – 2021.
4. Azimova N. E. A financially independent higher education institution is the foundation of our future //scientific progress. – 2022. – т. 3. – №. 3. – с. 130-134.
5. Azimova N. E. Et al. Youth is moving force of civil society //eastern european scientific journal. – 2019. – №. 1.
6. Азимова Н. Э. Технология духовно-нравственного воспитания преподавателя профессионального образования в процессе обучения //молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – с. 117-118.
7. Азимова н. Э. Роль профессионального педагога в подготовке гармонично развитой личности //международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2018. – №. 5-1.
8. Азимова Н. Э., Насимова З. И. К. Важные особенности человеческого образования в семье //academy. – 2020. – №. 5 (56).
9. Азимова Н. Э., Элибоева Л. С. Некоторые аспекты повышения уровня экологической культуры //наука, техника и образование. – 2019. – №. 1 (54).